

O'SMIRLIK DAVRIDAGI O'QUVCHILARNI O'QISH FAOLIYATIGA QIZIQTIRISH

Shodiyeva Diyora Abdullayevna

Toshkent viloyatidagi Parkent tumani 48-maktab psixologi

Anotatsiya: O'quvchilarda psixologiyasi va ularni psixikasi, o'quv faoliyatiga qiziqtirishda amalga oshiriladigan ishlar. Ushbu maqola o'quvchilarni o'quv fanlariga qiziqtirishning samarali usullari va metodlarini ko'rib chiqadi. O'quvchilarning ta'limga bo'lgan ishtiyoqini oshirish, ular o'rgatadigan fanlarga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish uchun o'qituvchilar va ta'lim tizimi yangicha yondashuvlar qo'llashlari lozim. Darslarni interaktiv qilish, hayotiy misollar keltirish, texnologiyalardan foydalanish, va o'quvchilarga erkinlik berish kabi usullar o'quvchilarning ilm-fanlarga bo'lgan qiziqishini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Maqolada ta'lim tizimida samarali ta'lim metodlaridan foydalanish orqali o'quvchilarga ilg'or bilimlarni yetkazish va ularda ilmlar bilan shug'ullanishga bo'lgan ishtiyoqni kuchaytirish mumkinligi ko'rsatiladi.

Kalit So'zlar: O'quvchilarni qiziqtirish, o'quv fanlari, ta'lim metodlari, interaktiv ta'lim motivatsiya, texnologiyalar va ta'lim, o'quvchilarni rag'batlantirish qobiliyat, faoliyat, ilk bolalik, harakat, psixolog, pedagog, tarbiyachi, ota-ona, diqqat.

O'quvchilarni o'quv fanlariga qiziqtirish bugungi kunda ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biridir. Yurtimizning ta'lim tizimida ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish va ularni ilmiy ishlarga rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega. Biroq, ko'plab o'quvchilar o'zlarini fanlarni o'rganishda qiyinchiliklarga duch kelishadi, bu esa ularning ilmga bo'lgan ishtiyoqini susaytiradi. Shuning uchun, ta'lim jarayonini o'quvchilarga qiziqarli va samarali tarzda olib borish, yangi yondashuvlar va metodlarni qo'llash zarur.

Interaktiv ta'lim metodlari Yurtimizdagi ta'lim tizimida o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash uchun muhim vosita hisoblanadi. Maktablarda o'quvchilarga o'quv jarayonida faollik berish, ular bilan muloqotga kirishish, guruh ishlari va darslarni mashqlar bilan boyitish orqali ta'lim jarayonini qiziqarli va samarali qilish mumkin. O'quvchilarga faqat nazariy bilimlarni berish yetarli emas, balki ularni amaliy mashg'ulotlarda ishtirok etishga undash zarur.

Misol uchun, matematikada masalalar yechish, fizika va kimyo darslarida tajribalar o'tkazish, tarixda esa tarixiy voqealarni tahlil qilish orqali o'quvchilarning faolligini oshirish mumkin. Maktablarda interaktiv ta'lim usullarini qo'llash orqali o'quvchilarni ilm-fanga qiziqtirishda katta yutuqlarga erishish mumkin. Maktablarida ilm-fanlar ko'pincha o'quvchilarga nazariy jihatdan tushuntiriladi, ammo ularni amaliyot bilan bog'lash ta'limning samaradorligini oshiradi. O'quvchilarga ilmiy yutuqlar, texnologiyalardagi yangiliklar, muhandislik va sanoatdagi amaliy misollarni ko'rsatish, ularni o'zlariga qiziqarli bo'lgan sohalarda o'qishga undaydi. Misol uchun, fizika yoki kimyo fanlarida laboratoriya mashg'ulotlari, tarix fanida esa tarixiy shaxslar va voqealarning bugungi kundagi ahamiyatini ko'rsatish o'quvchilarning qiziqishini oshiradi. Bu usul o'quvchilarning ta'limga bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytiradi.

Zamonaviy texnologiyalar o'quvchilarning ta'limga bo'lgan qiziqishini oshirishda katta rol o'ynaydi. Yurtimizda ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llashni yanada kengaytirish zarur. Kompyuterlar, interaktiv doskalar, video va multimediali materiallardan foydalanish o'quvchilarning e'tiborini jalb qiladi. Shuningdek, ta'limning sifatini oshirish va o'quvchilarni zamonaviy ilmiy-texnikaviy kashfiyotlar bilan tanishtirish uchun online kurslar va virtual laboratoriyalarni qo'llash ham samarali usuldir.

O'quvchilarga o'zlarining ta'lim jarayonlarini boshqarish va turli ta'lim resurslaridan foydalanish imkonini berish, ularning o'qishga bo'lgan ishtiyoqini yanada oshiradi. Bundan tashqari, texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilar o'quv materiallarini turli formatlarda, masalan, videolar, interaktiv dasturlar yoki mobil

ilovalar orqali o'zlashtirishlari mumkin. O'quvchilarni ilm-fanga qiziqtirishda o'zlariga maqsadlar qo'yish va shu maqsadlarga erishish uchun ularga rag'batlar berish zarur. Yurtimiz maktablarida o'quvchilarni fanlarga qiziqtirish uchun turli mukofotlar, medallar, tanlovlar va ilmiy ishlarda erishgan yutuqlarni e'tirof etish muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, o'qituvchilar o'quvchilarga o'z bilimlarini kengaytirish va yangi bilimlar olishda ularga yordam berishlari kerak. O'quvchilarni motivatsiya qilish, ularga o'zlariga bo'lgan ishonchni oshirish, muvaffaqiyatlaridan so'ng maqtash va rag'batlantirish ta'lim tizimining samaradorligini oshiradi.

O'quvchilarga o'zlari qiziqadigan fanlarni tanlash imkoniyatini berish, ularning ta'limga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi. Yurtimiz maktablarida o'quvchilarga fanlar bo'yicha erkinlik berish, ularning o'z qiziqishlariga mos ravishda o'qishlarini ta'minlaydi. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirishga yordam beradi va ularni fanlarga qiziqtiradi. Shuningdek, o'quvchilarga fanlar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatish, ular o'rtasida o'zaro integratsiyani amalga oshirish orqali o'quvchilarning keng qamrovli bilimlarni o'zlashtirishlariga yordam berish mumkin. O'quvchilarni o'quv fanlariga qiziqtirish — Yurtimizdagi ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir. Interaktiv ta'lim, hayotiy misollar, texnologiyalarni qo'llash, motivatsiya va erkinlik berish orqali o'quvchilarning ilm-fanga bo'lgan ishtiyoqini oshirish mumkin. Ta'lim jarayonida samarali metodlarni qo'llash, o'quvchilarga ilmga bo'lgan qiziqishlarini yanada kuchaytirish va ularni kelajakdagi muvaffaqiyatlarga tayyorlashda katta rol o'ynaydi.

O'smirlik davrida o'qish va yozma monologik nutq jadal rivojlanadi. 5-sinfdan boshlab to 9-sinfgacha o'qish to'g'ri, tez va ifodali bo'lish darajasidan, yoddan ifodoli, ta'sirli aytib bera olish darajasigacha ko'tariladi. Monologik nutq esa asardagi kichik bir parchani qayta so'zlab berishdan, mustaqil ravishda nutq va chiqishlar tayyorlash, og'zaki mulohaza yuritish, fikr bildirish va ularni asoslab berishgacha o'zgaradi. O'smirlik davrida nazariy tafakkur yuqori ahamiyatga ega bo'la boshlaydi. Chunki bu davrdagi o'quvchilar atrof-olamdagi bog'lanishlar mazmunini yuqori darajada bilishga harakat qiladilar. Bu davrda o'smirning bilishga bo'lgan qiziqishida progress sodir

bo'ladi. Ilmiy nazariy bilimlarning egallab olinishi tafakkurning rivojlanishiga olib keladi. Buning ta'sirida isbot, dalillar bilan fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Unda deduktiv xulosalar chiqarishga qobiliyat paydo bo'ladi. Qobiliyat deb odamning ma'lum bir ish yoki harakatlarni boshqa odamlarga nisbatan osonlik va chaqqonlik bilan bajara olish layoqatiga aytiladi. Kishilarda rivoj topib, ularning qobiliyatlarida namoyon bo'lgan tug'ma xususiyatlar iste'dod deb ataladi. Har bir odam bir qancha layoqatlar bilan tug'iladi. Lekin tug'ma layoqatlar hali kamolotga etgan qobiliyat emas. Layoqatlar odamlardagi tug'ma imkoniyatlardir. Odatda umumiy va maxsus qobiliyatlar farqlanadi. Odam umumiy qobiliyatlarga ega bo'lganda faoliyatning har xil turlari bilan deyarli qiynalmay shug'ullana oladi. Bunday o'quvchilar tabiat fanlarini ham, gumanitar fanlarni ham yaxshi o'zlashtiradilar. Maxsus qobiliyatga ega bo'lgan odam qandaydir aniq narsa bilan muvaffaqiyatli shug'ullana oladi. Bog'cha yoshida bilish, ba'zi bir maxsus va amaliy qobiliyatlar rivojlanadi. Qobiliyatning rivojlanishi tashqi va ichki haraitlarning o'zaro aloqalari orqali belgilanadi. Rubinshteyn aytganidek, qobiliyat spiralsimon tarzda rivojlanadi: bir ko'rinishdagi qobiliyatlar keyingi rivojlanish uchun imkoniyat yaratadi, natijada yana ham yuqori darajadagi qobiliyatlar rivojlanadi. O'rab turgan olam bilan bog'liq bilish qobiliyatlari o'z ichiga sensor qobiliyatlarni (predmetlarni va tashqi vositalarni idrok qilish) kabi intellektual, bilimlarni oson va mahsuldor o'zlashtirish, predmetlarning tabiatini va tevarak-atrofdagi hodisalar haqida ma'lumotlarni anglash jarayonida rivojlanadi. Ko'pgina psixologlarning tadqiqotlari bilish qobiliyatlarining ancha erta paydo bo'lishi haqida ma'lumot beradi. Ularning miqdori predmetlarning o'ziga xos tomonlarini anglay olish, qiyin vaziyatlarni hal qilish qobiliyati, kuzatuvchanlik, ongining ijodkorligi va originalligini belgilaydi. Leytes umumiy aqliy qobiliyatlarning rivojlanishida faollik va o'zini boshqarish xususiyatlari katta ahamiyatga ega deydi.

Hayratlanarli aqliy faollik, aqliy yuklamaga chanqoqlik intellektual jihatdan rivojlanishda ilgarilab ketayotgan O'quvchilarning xarakteristikasidir. Bog'cha yosh davrida bevosita bilishning shakllaridan bo'lgan sensor etalonlarni va ko'rgazmali-fazoviy modellashtirishni uddalay olish kabi xususiyatlar yuzaga kela boshlaydi. Kichik bog'cha yosh davridayoq O'quvchilarda modellashtirish o'rganadi. O'quvchilar

psixologiyasi insoniyat tug‘ilgandan yetuklikka erishguncha psixik jihatdan qanday rivojlanib borishini, bu jarayon qanday qonuniyatlar asosida kechishini o‘iganuvchi fandır. O‘quvchilar psixologiyasi fanini o‘qitish metodikasi O‘quvchilar psixikasi va uning rivojlanishini o‘rganmaydi. O‘quvchilar psixologiyasi fanini o‘qitish metodikasi bo‘lajak tarbiyachilarni “O‘quvchilar psixologiyasi” fanining o‘qituvchisi roliga tayyorlaydi. O‘qitish metodikasi talabalaiga oliy o‘quv yurtida yoki o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida O‘quvchilar psixologiyasi fanidan dars o‘qitishning yo‘l-yo‘riqlarini o‘rgatadi. Uning asosiy maqsadi fan asoslari bo‘icha ta‘lim oluvchilarga bilim berishning samarali usul va metodlarini o‘rgatish, ta‘lim jarayoni kutilgan natijalarni berishi uchun nimalarga e‘tibor qaratish lozimligini tushuntirishdan iborat. Boshqacha qilib aytganda O‘quvchilar psixologiyasi fanini o‘qitish metodikasi mazkur fanni o‘qitish qonuniyatlarini o‘rgatadi. Ba‘zi o‘qituvchilar fanni o‘qitishga ijodiy yondashmaydi, ularning darslari zerikarli va mazmunsiz o‘tadi. Boshqa ayrim o‘qituvchilar dars o‘tganda vaqt o‘tgani bilinmay qoladi. Bularning barchasiga o‘qituvchilar pedagogik mahorati va metodik bilimidagi farqlar sababdir. O‘quvchilar psixologiyasi fanini o‘qitish metodikasi ta‘lim jarayonini qiziq va samarador qilib tashkil etish uchun zarur bo‘lgan bilim, ya‘ni metodik bilimni beradi hamda talabalarda pedagogik mahorat elementlarini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy psixologiya. T.: O‘qituvchi, 1992. – 512 s.
2. Nemov R.S. Psixologiya Kn. M.: Prosveshenie – 1994. – 576 s.
3. G‘oziev E. Psixologiya. T.: O‘qituvchi, 1994 – 300 b.
4. Klimov E.A. Osnovi psixologii. Ucheb. M.: YuNITI, 1997. – 295 s.
5. M. Maxsudova. Umumiy psixologiya. (ma‘ruzalar matni) Namangan